



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№3(1)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 144 sahifa,
2-mart, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woosyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

O'zbek oilalarida ona-bola munosabatlari va ularning oilaviy emotsional muhitni shakllantirishdagi ahamiyati.....	18
<i>Abdullayeva Dilbar Ubaydullayevna</i>	
O'quvchi yoshlarda sog'lom turmush tarzini shakllantirish – ijtimoiy-pedagogik muammo sifatida	22
<i>Mirzayeva Faroxat Odiljonovna</i>	
Raqamli muhit ta'sirida bolalar psixikasidagi transformatsiya jarayonlari.....	30
<i>Abdullayeva Sh. H.</i>	
Turli yosh davrlaridagi shaxslarda o'zini o'zi faollashtirish xususiyatlarining tafovutlanishi	33
<i>Qurbonboyev Azimbek Nazirboy o'g'li</i>	
Bolalarni maktab ta'limiga intellektual tayyorlash va vitagen tajribasini rivojlantirishga metodik yondashuvlar.....	37
<i>Abdullayeva Feruza Shavkatovna</i>	
Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni steam asosida o'qitishning interfaol metodlari	42
<i>Aliqarshiyeva Durdona Sharofiddin qizi</i>	
O'simliklar guruhlari mavzusini o'quvchilarga tushuntirishda interfaol metod va vositalardan foydalanishning samaradorligi.....	49
<i>Dehqonboyev Muhammad To'liqin o'g'li</i>	
Kichik maktab yoshidagi shaxsda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni rivojlantirishning pedagogik shartlari	55
<i>Jo'rayev Avazbek Umar o'g'li</i>	
Matematika o'qitish jarayonida o'quvchilarning mantiqiy kompetentligini shakllantirish	59
<i>Kalandarova Maxliyo Aslonovna</i>	
Raqamli ta'lim sharoitida bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik madaniyatini rivojlantirishda raqamli ta'lim imkoniyatlaridan samarali foydalanish.....	63
<i>Kamalova Dilrom Olimjon qizi</i>	
Maktabgacha ta'limni rivojlantirish – kelajak avlod kamolotiga qaratilgan strategik islohot.....	68
<i>Kamolova Gavhar Akbarovna</i>	
Axloqiy qadriyatlar asosida milliy ertaklardan foydalanish texnologiyasi.....	71
<i>Kayumova Nargiza Mirziyatievna, Xo'jayeva Sharofat Olimjon qizi</i>	
Insult bilan xastalangan bemorlarda nutq buzilishlari korreksiyasiga yondashuvlar	74
<i>Maxkamova Laylo Majidovna</i>	
Milliy ta'lim tizimini yangilash va rivojlantirishning strategik modeli	77
<i>Mengliqulova Maftuna Abdullayevna</i>	
Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik va uning shaxs psixikasiga deterministik ta'siri	82
<i>Nishonova Oydinoy Mashrabjon qizi</i>	
Talabalarning mustaqil ta'lim faoliyatini tashkil etishda o'qituvchining fasilitatorlik roli	86
<i>Sariyeva E'tibor Matchanboyevna, Urazbayeva Sabohat Ortiqbayevna, Yuldasheva Gavxaroy O'rinboy qizi</i>	
Raqamli ta'lim platformalaridan foydalanishning bugungi holati: muammo va imkoniyatlari	90
<i>Suyarov Xurshid Baxriddinovich</i>	
Tarbiya darslarida boshlang'ich sinf o'quvchilarining kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish metodikasi.....	95
<i>Toshpo'latova Guldona Tulqin qizi</i>	
Kreativ yondashuvni shakllantirishda o'qituvchining innovatsion faoliyatini shakllantirish metodikasi	98
<i>Usarova Marg'uba Nazar qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kommunikativ nutq malakasini rivojlantirishning metodologik asoslari.....	102
<i>Vaisova Yodgora Sardorbek qizi</i>	
Destruktiv oilalarda shaxslararo munosabat psixologiyasi	106
<i>Sharafutdinova Xadichaxon Gulyamutdinovna</i>	



Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlarining axborot kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	110
Xalilayev Batirjon Taxirovich	
O'quvchilarning individual ta'lim ehtiyojlarini aniqlash mezonlarining pedagogik va raqamli diagnostik asoslari	114
Xalknazarova Aysuliw Maxsetbaevna	
Klinik integratsiya asosida farmakologiya fanini o'qitish modelini ishlab chiqish	118
Xasanboyeva Nafisaxon Abdullojonovna	
Yurak glikozidlaridan zaharlanishni oldini olishni o'qitishning metodik-pedagogik asoslari	121
Xoliqova Oyistaxon Yuldashevna	
Oliy ta'lim tizimida raqamli transformatsiya sharoitida bo'lajak o'qituvchilarning universal va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi	125
Xurramov Anvar Jumanazarovich	
Studying the Role of Magic Numbers and Nucleon Shells in Nuclear Structure	129
Yakubova Shoxidaxon Qodirovna, Dehqonova Ohista Qosimjonovna	
Методика адаптивного физического воспитания молодежи с интеллектуальными нарушениями посредством специализированных гимнастических упражнений.....	133
Аслонова Гуллола Акрам кизи	
Понятие эмоционально-оценочной лексики.....	137
Каримбаев Ниетбай Шарипович, Усенова Гульзира Женгисбай кызы	
Изучение русского языка с использованием цифровых платформ: потребности, проблемы и решения.....	140
Умарова Дильфуза Маматкуловна	



O'ZBEK OILALARIDA ONA-BOLA MUNOSABATLARI VA ULARNING OILAVIY EMOTSIONAL MUHITNI SHAKLLANTIRISHDAGI AHAMIYATI

Abdullayeva Dilbar Ubaydullayevna

Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti
Amaliy psixologiya kafedrası professori, psixologiya fanlari doktori (DSc)

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'zbek onalarining bolaga nisbatan ustuvor tarbiyaviy yondashuvlari hamda ushbu yondashuvlarning o'smir yoshdagi farzandlarda oilaviy hayot bilan bog'liq salbiy emotsional kechinmalar shakllanishiga ta'siri empirik tadqiqot natijalari asosida tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, onaning farzand bilan o'zaro munosabatda hissiy yaqinlik, qo'llab-quvvatlash va kooperatsiyaga asoslangan taktikalarni qo'llashi o'smirda oilaviy hayot bilan bog'liq xavotir, aybdorlik va boshqa salbiy his-tuyg'ular darajasini pasaytiradi. Aksincha, avtoritarizm, infantilizatsiya va simbiozga asoslangan munosabat uslublari o'smir shaxsida salbiy oilaviy emotsional kechinmalar kuchayishiga olib kelishi aniqlangan.

Kalit so'zlar: ona, farzand, oilaviy munosabat, tarbiyaviy yondashuv, xavotir hissi, aybdorlik hissi, hissiy yaqinlik, simbioz, avtoritar munosabat, kooperatsiya, infantilizatsiya.

Abstract: The article presents the results of an empirical study examining the relationship between dominant maternal parenting approaches among Uzbek mothers and negative emotional experiences related to family life in adolescents. The findings indicate that the use of emotional closeness, support, and cooperation-oriented interaction strategies by mothers significantly reduces adolescents' levels of anxiety, guilt, and other negative emotions associated with family relationships. Conversely, authoritarian, infantilizing, and symbiotic parenting styles are associated with an increase in negative family-related emotional experiences among adolescents.

Key words: mother, child, family relationships, parenting approach, anxiety, guilt, emotional closeness, symbiosis, authoritarian style, cooperation, infantilization.

Аннотация: В статье представлены результаты эмпирического исследования, направленного на выявление взаимосвязи между преобладающими воспитательными подходами узбекских матерей и уровнем негативных эмоциональных переживаний, связанных с семейной жизнью, у подростков. Результаты исследования свидетельствуют о том, что использование матерью тактик эмоциональной близости, поддержки и кооперации способствует снижению уровня тревожности, чувства вины и других негативных эмоциональных состояний у подростков в контексте семейных отношений. В то же время применение авторитарного стиля воспитания, инфантилизации и симбиотического типа взаимоотношений усиливает выраженность негативных эмоциональных переживаний, связанных с семейной сферой.

Ключевые слова: мать, ребёнок, семейные отношения, воспитательный подход, тревожность, чувство вины, эмоциональная близость, симбиоз, авторитарный стиль, кооперация, инфантилизация.

KIRISH

Oilaning inson hayotidagi o'rni uning bajaradigan ko'p sonli funksiyalari mazmunida yaqqol namoyon bo'ladi. An'anaviy madaniyat sharoitida oila insonning to'laqonli rivojlanishi, ijtimoiy hayotga muvaffaqiyatli qo'shilishi, qolaversa, zarurat tug'ilganda qo'llab-quvvatlanishini ta'minlashga xizmat qiladi. Insonning sog'lom hayot kechirishi hamda turli stressorlar ta'siriga bardoshli bo'lishida, ayniqsa, oilaning felitsitologik va psixoterapevtik funksiyalari muhim ahamiyat kasb etadi.

Oila insonning hissiy-emotsional ehtiyojlarini qondirishi bilan nihoyatda yuksak maqomga ega bo'ladi. Oilada iliq, do'stona muhitning hukm surishi, o'zaro tushunish va empatiyaga doimiy tayyorlik, oila a'zolaridan ma'naviy dalda olish, hech qanday shartsiz va istalgan vaqtda samimiy ko'mak hamda ruhlantirishga bo'lgan ishonch, shubhasiz, insonning butun hayoti va faoliyatidagi ijobiy natijalarning mustahkam poydevorini yaratadi.



Oilaviy munosabatlarda ijobiy emotsional modallikning ustuvor bo'lishi nafaqat bolalarning sog'lom psixologik muhitda voyaga yetishi, balki oilaning barcha a'zolari o'zini xotirjam his etishi hamda barqaror xushkayfiyatda bo'lishi nuqtai nazaridan ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois oila a'zolarining oilaviy hayotda yuzaga keladigan turli masalalarni qanday emotsional holatda qabul qilishi, ularda qaysi turdagi his-kechinmalar ustuvorlik qilishi hamda buni belgilovchi omillarni aniqlash dolzarb ilmiy vazifa hisoblanadi.

Xususan, onalarning bolaga nisbatan munosabati farzandning oilaviy his-tuyg'ulariga qanday ta'sir ko'rsatishini o'rganish mazkur omilning rolini to'g'ri baholash va uning ehtimoliy salbiy oqibatlarini o'z vaqtida oldini olish imkonini kengaytiradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI


Mazkur yo'nalishdagi tadqiqotimiz doirasida onalar o'rtasida A.Y. Varga va V.V. Stolin tomonidan ishlab chiqilgan "Ota-ona munosabati" test-so'rovnoma, o'smir yoshdagi farzandlar bilan esa E.G. Eydemiller va V. Yustitskis tomonidan yaratilgan "Oiladagi xavotir tahlili" so'rovnoma o'tkazildi.

Olingan natijalarni statistik qayta ishlashda chastotali (frekventiv) tahlil hamda Pirsonning chiziqli korrelyatsiya koeffitsiyentini hisoblash metodidan foydalanildi. Statistik tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, ikki o'zgaruvchi - ya'ni onalarning bolalarga munosabatidagi ustuvor yondashuvlar hamda o'smirlarda kuzatiladigan salbiy oilaviy emotsiyalar - o'rtasida statistik jihatdan ahamiyatli bog'liqlik mavjud.

TAHLIL VA NATIJALAR

Olingan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, bolaga nisbatan munosabatning ayrim turlari unda oilaviy hayot bilan bog'liq salbiy emotsional kechinmalar shakllanishiga zamin yaratishi mumkin. Xususan, simbiotik va infantilizatsiyalovchi munosabat uslublari oilaviy hayotda xavotir hissining ustuvorligi bilan, yaqin olish (emotsional yaqinlikni kuchaytiruvchi, biroq haddan tashqari bog'liqlikni yuzaga keltiruvchi yondashuv) hamda avtoritar munosabat esa oilaviy muhitda aybdorlik hissining namoyon bo'lishi bilan bog'liqligi aniqlangan.

Birinci holatda, simbioz va infantilizatsiya bolaning ona bilan o'zaro munosabatini haddan tashqari kuchaytirib, nosog'lom psixologik tobelikni shakllantiradi. Natijada bola onadan ajralish, uning ruxsatisiz mustaqil qaror qabul qilish yoki biror faoliyatni amalga oshirish zarurati tug'ilgan vaziyatlarda kuchli xavotirni boshdan kechiradi. Infantilizatsiyalovchi munosabat sharoitida oilaviy hayotdagi taranglik (psixologik zo'riqish) ko'rsatkichlarining yuqori bo'lishi ham mazkur fikrni tasdiqlaydi. Chunki bunday munosabat oqibatida bola onasi yonida bo'lmaganida, undan yordam ololmaganida yoki mustaqil harakat qilishga majbur bo'lganida asabiy zo'riqish va noqulay emotsional holatni his etishi tabiiydir.



1-rasm: Bola bilan munosabatning ustuvor strategiyasi bo'yicha farqlanuvchi onalarning o'smir farzandlarida oiladagi salbiy his kechinmalar nisbati (% hisobida)

Ikkinchi holatda avtoritarizmning oilaviy hayotda aybdorlik hissining shakllanishiga ko'proq hissa qo'shishi, bizningcha, ushbu uslubning bosim o'tkazishga asoslanganligi va ko'pincha ta'sir ob'ektida vijdon azobini qo'zg'atuvchi yondashuv bilan uyg'unlashib kelishi bilan izohlanadi. Vijdon qiynoqlarini ekspluatatsiya qilish



sharoitida tarbiyalanayotgan bola oilaviy hayotda amalga oshirayotgan ayrim xatti-harakatlari natijasida o'zini aybdor his etishga odatlanib qolishi mumkin.

Shuningdek, yaqin olish tipidagi munosabatning oilaviy hayotda aybdorlik (yoki uyat) hissi bilan bog'lanishini hissiy yaqin insonlarning bir-birini turli vaziyatlarda ranjitib qo'yish yoki uyaltirib qo'yishdan qo'rqishi bilan tushuntirish mumkin. Boshqacha aytganda, avtoritarizm ko'proq aybdorlik hissi ko'rinishidagi salbiy kechinmalarni yuzaga keltirishi ehtimol bo'lsa, yaqin olish uslubi uyat hissi shaklida namoyon bo'ladigan salbiy emotsional holatlarga sabab bo'lishi mumkin.

Bundan tashqari, keltirilgan natijalardan (1-jadval) ayon bo'ladiki, oilaviy hayotda xavotir hissining ortishi ona va farzand o'rtasidagi emotsional yaqinlikni susaytiradi. Bu holat "kooperatsiya-xavotir", "yaqin olish-xavotir", "simbioz-xavotir" juftliklarida korrelyatsion aloqaning teskari, ya'ni manfiy modallikka egaligida namoyon bo'ladi.

Darhaqiqat, xavotir emotsional holat sifatida klassik psixologik nazariyalarga ko'ra hali ro'y bermagan, biroq sodir bo'lishi natijasida shaxsga muayyan zarar yetkazishi mumkin bo'lgan voqea-hodisalarga nisbatan yuzaga keladi. Shunday emotsional fon ustuvor bo'lgan vaziyatda inson imkon qadar xavotir manbai deb qabul qilinayotgan ob'ektdan uzoqlashishga, undan nari bo'lishga intiladi. Ehtimol, aynan shu sababli oilaviy xavotir darajasining yuqoriligi yaqin munosabatlarni saqlash, kooperativ hamkorlikni yo'lga qo'yish va emotsional yaqinlikni mustahkamlash ko'rsatkichlarining pasayishiga olib keladi.

Manfiy korrelyatsion aloqadorlik shuningdek, oilaviy hayotdagi tajanglik hamda yaqin olish shkalalari o'rtasida ham qayd etilgan. Bundan ko'rinadiki, oila muhitida uning a'zolari o'rtasidagi munosabatlar qanchalik tarang bo'lsa, iqlim salbiy his-kechinmalar bilan to'yingan holatga yetsa, odamlar bir-biriga intilishi, o'zaro yaqinlik istashi shunchalik past bo'ladi. Bunday talqin bir qarashda go'yoki tajanglik va simbioz munosabatlar o'rtasida statistik ahamiyatli musbat korrelyatsiya mavjudligi bilan shubha ostiga qo'yilishi mumkindek ko'rinadi. Ammo bunday holatning izohini, nazarimizda, parallel ravishda avtoritarizm va tajanglik o'rtasida musbat korrelyatsiya mavjudligidan topish mumkin.

1-jadval: Bolaga munosabatdagi ustuvor yondashuv va o'smir farzandlardagi salbiy oilaviy his kechinmalar o'rtasidagi aloqadorlik ko'rsatkichlari (Pirson korrelyatsiya koeffitsiyenti bo'yicha)

Bolaga munosabatdagi ustuvor yondashuvlar	Salbiy oilaviy his kechinmalar turlari		
	Oilaviy hayotda aybdorlik hissi	Oilaviy hayotda xavotir hissi	Oilaviy hayotda asabiy tajanglik
Yaqin olish	-0,28*	-0,42***	-0,32**
Kooperatsiya	0,02	-0,24*	0,12
Simbioz	0,27*	-0,22*	0,36**
Avtoritarizm	0,57***	0,14	0,32**
Infantilizatsiya	-0,23*	0,34**	0,24*

Bir tomondan, tajanglik va simbioz, ikkinchi tomondan esa tajanglik hamda avtoritarizm o'rtasidagi musbat korrelyatsiya oilaviy hayotda tajanglik emotsional holati yetakchilik qilgan sharoitda bolani o'ziga simbiotik darajada bog'lab olish ko'pincha avtoritar uslub, ya'ni ruhiy va jismoniy bosim vositasida amalga oshirilishini ko'rsatadi.

Ehtimol, oilaviy hayotdagi tajanglik fonida farzandning ota-onadan emotsional jihatdan uzoqlashib borayotganini (yaqin olish shkalasi bo'yicha manfiy korrelyatsiya) his etgan kattalar o'rtadagi yaqinlikni har qanday yo'l bilan saqlab qolishga intilishlari mumkin. Bunday vaziyatda ular ba'zan zo'ravonlik yoki majburlash elementlaridan ham foydalanishga moyil bo'lishi ehtimoldan xoli emas.

Mazkur taktika, shubhasiz, ko'proq ongsiz motivlar ta'sirida shakllanadi va, bizningcha, har bir insonning avvalo o'ziga nisbatan, ayniqsa, o'z nigohida ijobiy obrazni saqlab qolishga, o'zini pozitiv baholashga bo'lgan ichki ehtiyoji bilan bog'liqdir. Ota-ona va farzand munosabatlarida, umuman, oila muhitidagi o'zaro ta'sirlashuv jarayonida ushbu psixologik qonuniyat yanada yaqqolroq namoyon bo'lishi mumkin. Zero, har bir inson, avvalo, o'zining yaqinlari nigohida munosib va mukammal ko'rinishni istaydi.

Shu nuqtai nazardan qaralganda, bolasi bilan tajang oilaviy muhit sharoitida konstruktiv va kooperativ munosabatlarni yo'lga qo'ya olmayotgan ota-onalar o'ziga nisbatan hurmat va ijobiy bahoni saqlab qolish maqsadida, hatto majburlash va ta'ziyq elementlari hisobiga bo'lsa ham, bolani o'ziga bog'lab olishga intilishlari mumkin. Natijada empirik tahlilda aniqlangan mazkur korrelyatsion aloqalar aynan shu psixologik mexanizmlar bilan izohlanishi mumkin, degan xulosani ilgari surish o'rindir.



XULOSALAR

Demak, o'zbek onalardagi bolaga munosabatning ustuvor uslubiyoti hamda ularning o'smir yoshdagi farzandlarida oilaviy hayot bilan bog'liq salbiy his kechinmalar o'rtasidagi aloqadorlikni o'rganish asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Onaning bola bilan bo'lgan munosabatda unga hissiy yaqinlikni namoyon etuvchi taktikalardan foydalaniishi farzandda oilaviy hayotda uchrashi mumkin bo'lgan salbiy kechinmalar darajasini pasaytiradi.
2. Ona tomonidan avtoritarizm va infantilizatsiya usullaridagi munosabatning qo'llanishi bolada salbiy oilaviy his kechinmalar ehtimolini keskin oshiradi.
3. O'zbek oilasida bola bilan bo'lgan munosabatda onaning yaqin olish uslubi bilan birga kooperatsiyaga e'tibor qaratishi ijobiy oilaviy his-kechinmalarga omil sifatida xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Варга А. Я., Драбкина Т.Я. Системная семейная психотерапия. Краткий лекционный курс. – СПб.: Речь, 2001. – 144 с.
2. Эйдемиллер Э., Юстицкис В. Психология и психотерапия семьи. - 4-е изд., перераб. и доп. - Москва: Питер, 2008. – 668 с.
3. Abdullayeva D.U. Ota-ona va farzand o'rtasidagi destruktiv munosabat bolalarda agressiv xulq shakllanishi omili sifatida. // Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar.–Buxoro, 2023. №5. –B.313-316.
4. Рогов Е.И. Настольная книга практического психолога: Уч. пособие: В 2 кн. – 3-е изд. – М.: Гуманит. изд. центр ВЛАДОС, 2000. – кн.2: Работа психолога со взрослыми. Коррекционные приемы и упражнения. – 480 с.
5. Эйдемиллер Э. Г. Методы семейной диагностики и психотерапии: Методическое пособие / Под общ. ред. Л.И.Вассермана. – М.: Фолиум, 1996. – 48 с.
6. Эйдемиллер Э., Юстицкис В. Психология и психотерапия семьи. - 4-е изд., перераб. и доп. - Москва: Питер, 2008. – 668 с.
7. Abdullayeva D.U. Establishing a relationship between a mother and a teenage child. // Frontline social sciences and history journal. Volume 03 №2. 2023. P 18-26. - <https://frontlinejournals.org/journals/index.php/fsshj/article/view/314>
8. Абдуллаева, Д. (2023). Oilaviy tarbiya bola shaxsi rivojlantirishini belgilovchi omil sifatida. // Педагогики и психологии в современном образовании. <https://ppmedu.jpdu.uz/index.php/ppmedu/article/view/8963>
9. Абдуллаева, Д. (2023). Oilada ota-ona va farzand munosabatlariining ziga hosligi. - Б. 226-232. <https://cyberleninka.ru/article/n/oilada-ota-ona-va-farzand-munosabatlariining-ziga-hosligi/viewer>
10. Abdullayeva D.U. Appearance of ethnopsychological factors in the relationship of mother and child in the uzbek family. American journal of social sciences and humanity research. Volume 03 №12. 2023. - P. 170-175.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №3(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.